


Surxondaryoda “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yigit-qizlar muammosi qanday hal etiladi?



Termiz shahridagi “Yoshlar markazi”da Prezidentimizning o‘tgan yil dekabr oyidagi O‘zbekiston yoshlari forumidagi nutqi hamda joriy yil 27 yanvardagi yoshlar bandligini ta‘minlash va bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan o‘tkazgan videoselektor yig‘ilishida belgilab berilgan vazifalar ijrosiga bag‘ishlangan seminar bo‘lib o‘tdi.

Surxondaryo viloyatida mazkur topshiriqlarni so‘zsiz bajarish uchun “Yoshlar daftari”ga kiritilgan yigit-qizlar bilan ishlash, bandligini ta‘minlash, ular o‘rtaga tashlayotgan masalalar yechimiga tezkor ko‘maklashish maqsadida “Yoshlar markazi”da viloyat shtabi tashkil etildi. Shtabga birlashtirilgan tashkilot va muassasalarga aniq vazifalar belgilab berildi. Shunga muvofiq endilikda yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka o‘qitish, “Har bir tadbirkor – yoshlarga madadkor” tamoyili asosida ishsiz yoshlarni birlashtirish va ularning bandligini ta‘minlash, yangi loyihalarni tashkil etish va korxonalar faoliyatini qayta tiklash orqali yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish, yoshlarning tadbirkorlik va hunarmandlik loyihalariga kredit ajratish orqali ish o‘rinlari barpo etish, xo‘jalik yurituvchi subʼektlardagi bo‘sh ish o‘rinlari hisobiga yoshlar bandligini ta‘minlash kabi yo‘nalishlarda tizimli ishlash yo‘lga qo‘yilmoqda.



“Har bir yoshga bir gektar” loyihasi hamda tomorqalardan unumli foydalanishni tashkil etish orqali yoshlar bandligini ta‘minlash, “Yoshlar tadbirkorlik zonasi”ni barpo etib, yigit-qizlarni ish bilan band qilish, tashkillashtirilgan mehnat migratsiyasi orqali yoshlarni ijtimoiy-qo‘llab-quvvatlash, “Yoshlar daftari” ga kiritilgan yigit-qizlarni qo‘llab-quvvatlash uchun mablag‘ shakllantirish, ularni madaniyat markazlari, sport maktablari va umumta‘lim maktablarida qo‘shimcha to‘garaklarga jalb etishga e‘tibor kuchaytirilayotir.

Viloyat shtabiga mas‘ul tashkilot va idoralardan birlashtirilgan xodimlar o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha sektorlarda amalga oshirilgan ishlarning kunlik aniq ma‘lumotlarini olib

umumlashtiradi. Tuman va shahardagi quyi tizimda ham xuddi shunday ish tashkil etadi. Muammoga duch kelayotgan yoshlar ro'yxatini shakllantirib, viloyat shtabiga yetkazadi.

Seminarda O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi boshlig'i Sherzod Olimov bu boradagi ishlarni tashkil etish yuzasidan taqdimot qildi.



Ayni paytda viloyatda 500 mingdan ortiq 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan yigit-qiz istiqomat qilmoqda. Hozirgacha mahallabay orqali uyma-uy yurilib, ularning 421 mingtasi xatlovdan o'tkazildi. 88 mingdan ziyod yoshlar "Temir daftar"ga kiritildi. Taqdimotda "Temir daftar"ga kiritilgan yoshlar bilan ishlash, ularni qo'llab-quvvatlash, daftardan chiqarish tartib-taomillari haqida atroflicha ma'lumot berildi.

-Xalqimizda bir bolaga yetti mahalla ota-ona, degan purma'no gap bor, - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Surxondaryo viloyatidagi Xalq qabulxonasi mudiri A.Eshmurodov. - Lekin, biz yoshlarimiz tarbiyasida, bandligini ta'minlashda loqaydlikka yo'l qo'yganimiz oqibatida ular muammolar qurshovida qolmadimi? Endi bu haqda jiddiy o'ylab ko'rishimiz kerak. "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlar bilan ishlashda befarqlikka yo'l qo'ymasligimiz lozim. Befarqligimiz vaqti kelib, o'zimizga qaytadi. Bu - qaytar dunyo. Davlatimiz rahbarining yoshlar muammolariga tez-tez e'tibor qaratayotganida ana shunday chuqur ma'no bor. Bu ishda befarqlikka yo'l qo'ygan, xato qilgan rahbar kechirilmaydi. Vaholanki, "Yoshlar daftari"ga kiritilgan yigit-qizlar muammolari yechimiga barchamiz mas'ul ekanimizni unutmasligimiz kerak.

Seminarda ishtirokchilarni qiziqtirgan savollarga atroflicha javob berildi. Tashkilot va idoralar rahbarlari viloyat shtabida yaratilgan sharoitlar va uning faoliyati bilan yaqindan tanishdi.